DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-71 Pages: 618-627

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE PRESENTATION OF PRAISE AND EULOGY IN OGAHI'S WORK "GULSHANI DAVLAT"

Muslimabonu A. Tursunalieva
Doctoral Candidate
Higher School of Turkology
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: tursunaliyevamuslima97@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: "Gulshani Davlat", manuscript praise, tawhid, plea, eulogy, publication, text, deed, description, eulogies.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article is dedicated to the "Hamd" and "Na't" sections of Ogahiy's work *Gulshani Davlat*, exploring their types. The article compares the published version and the manuscript for the first time. It discusses the differences between the publication and the manuscript, and analysis has been conducted on the text where these differences are present.

OGAHIYNING "GULSHANI DAVLAT" ASARIDA HAMD VA NA'T QISMLARINI BERILISHI

Muslimabonu A. Tursunaliyeva
Tayanch doktrant
Turkshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: tursunaliyevamuslima97@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: "Gulshani davlat", qo'lyozma, hamd, tavhid, iltijo, na't, nashr, matn, merojnoma, vasf na'tlar.

Annotatsiya: Ushbu maqola Ogahiyning "Gulshani davlat" asarining hamd va na't qismlariga bag'ishlanib, uning turlari ochib berilgan. Maqolada nashr va qo'lyozma qismlari ilk marta solishtirilgan. Nashr va qo'lyozmada tafovutlar haqida fikrlar bildirib, mazkur tafovutlar bor matn ustida tahlil ishlari amalga oshirilgan.

РАСКРЫТИЕ РАЗДЕЛОВ “ХАМД” И “НАЬТ” В ТРУДЕ АГАХИ “ГУЛШАНИ ДАВЛАТ”

Муслимабону А. Турсуналиева
Докторант
Высшая школа тюркологии
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: tursunaliyevamuslima97@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Гулшани давлат», рукопись, хвала, единобожие, мольба, поэзия, публикация, текст, мероджнома, стихи васф.

Аннотация: Эта статья посвящена частям хвалы (хамд) и наьта в произведении Агахи «Гулшани давлат». В ней рассматриваются различные виды этих жанров. В статье впервые проводятся сравнения между изданием и рукописью. Оцениваются различия между изданием и рукописью, и проводятся аналитические работы на тексте, в котором эти различия проявляются.

Kirish. Xorazm diyoridan yetishib chiqqan, tarjimon, tarixchi, shoir va yozuvchi hisoblangan Muhammad Rizo Ogahiyning “Gulshani davlat” asarni ko’plab tarixshunos olimlar ilmiy tomonlama o’rganib, fanga ushbu asar ma’lumotlarini yangilik sifatida olib kirdilar. Ushbu asarning qo’lyozmalar ham yuritimiz va dunyo kutubonalarida saqlanmoqda, uning ham to’liq shaklda nashr ham 2020-yil e’lon qilindi. Ammo, Ogahiy asarlarining kirish muqaddimalari hisoblangan hamd va na’t qismlari berilishi bugungi kunga qadar ilmiy va nazariy o’rganilmagan. Uning tarixiy asarlarida qanday, nasr va nazmda qandayligi yoinki tarjima asarlarida qanday tarzda berilganligi hali hamon qorong’udek. Sababi, hamd va na’t ko’plab alloma-yu ikromlarning asarlarida bir necha satrlar yoki bir sahifadan ko’proq berilgan, lekin Ogahiyda alal aksdur. Demak, uning asarlarida ham hamd va na’t berilishda o’xshash yoki o’zi xoslik kasb etadi. Bizning ushbu maqoldan maqsadimiz, Ogahiyning asarlaridan bir shohchasi hisoblangan, “gulshani davlat” asaridagi hamd va na’tning matniy holatini tahlilga tortish, hamda undagi so’z qudrati, ma’no qirralarini bilan bir qatorda, nashr va qo’lyozma farq va tafovutlari ham ko’rsatib berishdur.

Tadqiqot usullari. Mazkur maqolada Ogahiyning “Gulshani davlat” asarining hamd va na’t qismlari o’rganish obyektlari hisoblanadi. Asarning O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572 raqamli qo’lyozma hamda 2020-yilda nashr etilgan kitoblari asosida hamd va na’t qismlari solishirib, qiyoslab, tahlil

etiladi. Matnlarning asliyat va nashriyoti yonma-yon qo'yilib, uning ma'no qirralari berilib o'tiladi. Asarning nasriy va nazmiy matnlari tuzilishlari ham tavsiflanadi.

Natijalar. Asarning hamd va na't qismidagi matnlar nashr va qo'lyozmada farqi tomonlari aniqlangan, uning matn ma'no qirralariga ta'sir doirasi aniqlangan.

Matnda asosan ot so'z turkumi, yordamchi so'z turkumlarini bilan bog'liq tafovutlar birmuncha ko'proq uchrasa, fe'l esa deyarli kamdur.

Na't qismida vasf va me'roj na'tlari aralash berilgan bo'lib, undagi vafs na'tlari ham asar mazmuniga monand payg'ambarimizni hamma payg'ambarlarni podshohi ekanligiga urg'u tashlangan. Me'roj na'tlarda asosan Alloh va uning rasulini o'rtasida yaqin masofa, uning ko'kka ko'tarilish holatlarini bergan. Qo'lyozmada asosan matnda uchragan so'z qo'shimchalar asosiy qo'shilayotgan so'zlardan ajratib yozilgan, nashrda esa qo'shib, ba'zi holatda esa chiziqcha bilan ajratilib yozilgan.

Muhokama. Asarda asosan tavhid hamdi berilgan bo'lib, unda Ollohning barcha podshohlarni podshohi sifati ulug'langan.

سپاسی به انطماس و ستایش به اندراس تحـایفی کیم دوایـر اقلاک سـایرلاریغ اذلـدین تـا ابـددور زبـان رطب اللسـان دور. (.Inv. no. 7572. 2A-b)

Siposi beintimos va siyoyishi beindiros tahoyifekim, davoyri aflok siyirlarig'a azaldin to abaddur va zaboni ratbu-l-lisondur.(Ogahiy, 2020, p. 3)

"Basmala"dan so'ng berilgan ushbu mantni qo'lyozma va nashr qismida quyidagi farqli tomonlar aniqlandi سـایرلاریغ (soyirlarig'a) so'zi nashrda "siyirlarg'a" deya berilgan; so'z qo'shimchalari qo'lyozmalarda so'zdan ajratib yozilgan bo'lsa, nashrda qo'shib yozilgan;

Ogahiy falaklar orasida aylanishlar azaldan to abadgacha tilda bog'langan til ila yagona bo'lgan zotga tugalmas shukr va g'oyib bo'lsa ham hamd bo'lsin deya barcha hamd yagona zotga Allohga xosdur. Allohning "Al-mubdiu" - avvaldan bor bo'lgan ismini e'tirof etgan.

اول پادشاه ذو الجلال نینگ معلا حضرتیغ نثـادورکیم گـردون تـوان سلطانلار نینـگ درگـاهی توفراقغ عبـودیت باشین قویماق بیله تاجدار و صاحب اعتبار دورلار (Inv. no. 7572. 2A-b.)

Ul podshohi zuljalolning muallo hazratig'a nisodurkim, garduntavon sultonlarning dargohi tufroqig'a ubudiyyat boshin quymoq bila tojdor va sohibe'tibordurlar.(Ogahiy, 2020, p. 3)

Qo'lyozmdagi ذو الجلال نینگ (zu-l-jalol ning), گـردون تـوان (gardun tavon), صـاحب اعتبـار دورلار (sohib i'tibor durlar) so'zlari nashrda qo'shilib ketilgan.

Ushbu matn ham Allohning "Zul jalol val ikrom - sharaf va kamol, karam va ikrom egasi" ismiga ta'rif ila bitilgan bo'lib, barcha podshohlar Allohga ibodat qilganligi uchun ham tojdor va e'tibor qozongandur deya ta'rif etiladi. Alloh podshohlarningda podshohi "Al-Malik"dur.

و شانی به منتها و شکر لایحص وظایفی کیم سرایر خاک دایرلاری آنینگ بزّتیدین اوّلدین تا آخر شیرین کام وعدب البیاندور (Inv. no. 7572. 2A-b.)

Va shani bemuntaho va shukri loyuhso vazoyifekim, saroyiri xokiy doyirlari aning lazzatidin avvaldin to oxir shirinkom va vaziu-l-bayondur.(Ogahiy, 2020, p. 3)

Matnda ba'zida biror bir harfdan keyin alif kelsa, u o'zidan oldingi harfni "o"lashtirib o'qishga hizmat qilgann, ammo nahsrda esa bu tabdilchining ixtiyori ila o'zgartirilgan, masalan و شانی (va shoni) so'zi nashrda "shani" tarzda, fors tilidagi yoyi nakra ba'zan "i" tarzda دایرلاری (doyirlari), ba'zan esa "e" shaklida وظایفی کیم (vazoyifekim) so'zi kabi berilib ketilgan.

اول سلطان عدیم المثال نینگ معظم درگا هیغ سزاواردورکیم عالیمکان خاقانلار آنینگ آستانی تاشیغ عجزو انکسار مانگلایین اورماق بیله کامکار وگردون اقتداردورلار (Inv. no. 7572. 2A-b.)

Ul sultoni adimu-l-misolning muazzam dargohig'a sazovordurlik, Oliymakon xoqonlar aning ostoni toshig'a ajzu inkisor manglayin urmoq bila komkor va garduniqtidorurlar. (Ogahiy, 2020, p.3)

Matnning qo'lyozma qismidagi وگردون اقتداردورلار (va gardun iqtidorurlar) so'zlari nashrda qo'shilib yozilgan holda orfografik xatoga yo'q qo'yilgan.

عالم ملکوت هر فضای مختصردور قدرته کلستانیدین وجهان ناسوت بیر صحن مقصردور عظمتی آیوانیدین خورشید درخشان حکمتی بیضا سدین بیر لمعئ ناپدیددور محیط بکیران مکرمتی دریاسیدین بیر قطره نامقیددور (Inv. no. 7572. 2A-b.)

Olami malakut har fazoyi muxtasardur qudrati gulistonidin va jahoni nosut bir sahni muqassardur azamati ayvonidin. Xurshidi duraxshon hikmati bayzosidin bir lam'ayi nopudiddur, muhiti bekaron makrumat daryosidin bir qatrayi nomuqayyaddur. (Ogahiy, 2020, p.3)

Matnshunoslik nuqtayi nazardan ushbu matnning qo'lyozma va nashrda farqlari bo'lib, uni biz مکرمتی دریاسیدین (makrumati daryosidan) so'zi nashrda "y" nakrasiz berilib ketilgan; nashrda talaffuzdosh harflar deyarli farqlanmay berilib ketilmagan ayniqsa "x" va "h" harflarida buni uchratish mumkin.

نظم

شاهی کیم ایرور منفرد ذات آنگا

باری ماسوا کیلدی مرات آنگا

حسن درکهی دور حدوث قدم

غباری رهی دور وجود عدم (Inv. no. 7572. 2A-b.)

Shohekim, erur munfarid zot anga,

Bari mosivo keldi mir'ot anga.

Husni dargahidur hudusu qidam,

G'ubori taxidur vujudu adam. (Ogahiy, 2020, p.3)

آنگا (ongo) so’zi qo’lyozmada berilgan bo’lsa, nashrda “anga” tarzda berilib ketilgan. Allohning yagonaligiga uning “al-Malik”, “al-Boqiy” kabi sifatlari ochib bergan. Alloh shunday shohki, u yagona, abadiydur. Tazod san’atlaridan foydalanilgan. “Hudusu qidam” so’zlari tazoddur ya’ni yangi va eski kabi.

کرمی کیم کرم عام مقتضاسی بیله افراد انساندین هرکسی کیم صاحب دولت قلماق استاس سلطنت تختغ میندوروب جهان ممالکی نینگ عنان اختیارین انینگ قبضی اقتداریغ تاپشورور (.Inv. no. 7572. 2A-b)

Karimekim, karami omm muqtazosi bila afrodi insonidin har kishinikim, sohib davlat qilmoq istasa, saltanat taxtig’a mindurub, jahon mamolikining inoni ixtiyorin aning qabzayi iqtidorig’a topshirur. (Ogahiy, 2020, p.4)

Matn qo’lyozma ikki bir so’zlar nashrda ikki hil tarzda o’qilgan, ya’ni کرمی کیم کرم so’zlari, aslida ikkisi ham “karam” so’zlari.

Alloh xohlagan insoniga boyli, faqirlik bersa, xohlagan insoni shoh, xohlagan kimsasini esa gado qiladi. Alloh “Al-g’oniy” zotdur, uning karami keng. “Al-Karim” sifati ila bir bandasiga jahon shohlarining ham podshohi qilur.

آنداقکیم تؤتی الملک من تشاء محواسی اندین خبر برور (.Inv. no. 7572. 2A-b)

Andoqkim, “Tu’ti-l-mulka man tasha’u” mahvosi andin xabar berur. (Ogahiy, 2020, p. 4)

Matnda آنداقکیم (ondoqkim) so’zi nashrda andoqkim shaklida yozilgan; Qur’on oyatidan berilgan parcha asliyat holatda transkripsiyada berib ketilgan, oyatni tarjimasi “Xohlagan kishingga mulk berursan” (Ol-imron surasi, 26-oyat) shaklida berilsa barchaga tushunirliroq bo’lardi.

وقادیرکیم قدرت تمام اجراس بیله سلاطین جهایدین هر کمر سه نه کیم اوج عزتدین حضیض ذلتغ یتکورماک تیلاس دولت سریردین توشوروب عالم مملکتی نینگ ذمام اختیارین پنجی اعتباریدین آلور (.Inv. no. 7572. 2A-b)

Va qodirkim, qudrati tamom ijrosi bila salotini jahondin har kimarsanikim, avji izzatdin xazizi zillatg’a yetkurmak tilasa davlat sariridin tushurub olam mamlakatining zimomi ihtiyorin panjayi e’tiboridin olur. (Ogahiy, 2020, p.4)

Al-Qohhar - qahr qiluvchi, qudratli zot, insonga boylik berib, uni ixtiyor etsa olib qo’yishga ham qodir zotdir.

آنداق کیم تنزع الملك ممن تشاء مؤداسی آنه اعلام قیلور (.Inv. no. 7572. 2A-b)

Andoqkim, “tanzi’u-l-mulka minman tasha’u” muvaddosi ani e’lom qilur. (Ogahiy, 2020, p.4).

Matnda آنداقکیم (ondoqkim) so’zi nashrda andoqkim shaklida yozilgan; Ol-Imron surasining 26-oyat bir qismi nashrda ham izohsiz transkripsiyada berilib ketilgan, تنزع الملك ممن تشاء “Xohlagan kishining mulkini tortib olursan” (Ol-imron surasi, 26-oyat) shaklida berilishi joizdur.

Allohning al-Malik, al-Qahhor, al-G'oniy sifatlari berib, quyidagi masnaviyni berib ketiladi:

مثنوی

خدایی کی یوق مثل مانندہ سی

خداوندلار دور کمین بندہ سی

کرم دین بیراوگا بیرور شاہ لیق

جہان اہلی اچرا قلک جاہ لیق

بیراودین آلور سلطنت دولتین

مسلم آنگا ملك غیب شہور

ایرور خالق جمل بود نبود

غلبت شانہ وعمت احسانہ(Inv. no. 7572. 2A-b.)

Xudoyoki, yo'q mislu monandasi,

Xudovandlardur kamin bandasi.

Karamdin birovg'a berur shohlik,

Jahon ahli ichra falakjohlik.

Birovdin olur saltanat davlatin,

Boshig'a solur maskanat zillatin.

Masallam anga Mulki g'aybu shuhud,

Erur Xoliqi jumla budu nobud.

G'alabat shonahu va ammat ehsonahu. (Ogahiy, 2020, p.4)

Masnaviy matni qo'lyozma yoki nashrdagi holatlarida ayrim so'zlarning tafovutlari mavjudligi bor masalan, بیراوگا (birovga) so'zi nashrda "birovg'a" deb berilgan. قلک جاہ لیق (falak joh liq) so'zi nashrda qo'shib yozilgan.

Biz ushbu asarning na't qismi qo'lyozma va nashr solishtirib, so'ngra matndagi holatlarni o'rganib chiqamiz.

حضرت سید مرسلین تہیات زاکیات وصلوات طیبات جواہر کیم اہل امم ضمایری عمانیدین چقیب ظہور ساحلی را نمایان بولور (.Inv. no. 7572. 2A-b)

Xazrati sayidu-l-mursalin. Tahiyyatu zokiyot va salovotu tayyibot javohirikim, ahli umam zamoyiri ummonidin chiqib, zuhur sohilida namoyon bo'lur. (Ogahiy, 2020, p.4)

Qo'lyozmada سید so'zi arabiy so'z bo'lib, uni transkpitsiyada "sayyid" hisoblanadi, nashrda "sayid" deb ketilgan; Ushbu vasf na'ti payg'ambar Muhammad sallohi alayhi vassallamning dur-u salovotlar egasi, u shunday johiliyat qamrab olgan xalqning ichida chiqib, bir nur ila nayomon bo'lgandur.

اول پادشاہ نوبات بارگاہ نینگ روضئ منوریغ لایق دور خوردورکیم ثم دنی فتدلی ملکی نینگ صاحب نینگ دور (Inv. no. 7572. 2A-b.)

Ul podshohi nubuvvat-borgohening ravzayi munavvarig'a loyiqdurkim "summa dana fatadalla" mulkining sohibningdur. (Ogahiy, 2020, p.4)

نوبات (nuvubbat) so'zi nashrda "nubuvvat" shaklida berilgan; خوردورکیم (xurdurkim) so'zi esa nashrda qoldirib ketilgan; ثم دنی فتدلی ushbu oyat "An-najm" surasining 8-oyati bo'lib, u ham nashrda transkpitsiyada berilgan, tarjimada esa "So'ngra yaqinlashdi va juda ham yaqin bo'ldi" degan ma'nodadur, ya'ni bu yerda me'roj na'tini ifodalanmoqda.

ودرور نامعدودور ودعای بلا محدود زواهری کیم اهل عالم النبسی کایندین چقیب وجود باراریدا عیان بولور) (.Inv. no. 7572. 2A-b

Va durudi nama'dud va duoyi bilomahdud zavohirikim, ahli olam ajabasi konidin chiqib, vujud bozorida ayon bo'lur. (Ogahiy, 2020, p.4)

Qo'lyozmadagi نامعدودور (noma'dudur) so'zi nashrda nama'dud shaklida berilgan; بلا محدود (bilo mahdud) so'zi nashrda qo'shib yozilgan;

Bu ham me'roj na't hisoblanib, payg'ambar ahli olam ajabidan chiqib, borliqning olamida namoyon bo'ldi ya'ni me'rojda ko'tarilish jarayonlarini beib o'tilgan.

اول شاهنشاه رسالت دستکاه نینگ تربت معطریغ مناسب ومقرردورکیم قاب قوسین اوادنی نحتی نینگ بالا نشینی دور(Inv. no. 7572. 2A-b.)

Ul shahanshohi risolatdaxtgoh-ning turbati muattarig'a munosib va muqarrardurkim, "qaba qovsayn" o'runi taxtining bolonishinidur. (Ogahiy, 2020, p.4)

Matnda qo'lyozmasidagi رسالت دستکاه نینگ (risolat dastgoh ning) so'zlari nashrda risolatdaxtgoh-ning ushbu shaklda berilgan, -ning qo'shimchasi ajratilishiga sababsiz holatdur; قاب قوسین so'z birikmasi Najm surasining 9-oyatidan olingan bo'lib, "ikki kamon miqdoridek yaqinlik" degan ma'nodadur, ya'ni me'rojda Alloh va payg'ambar Muhammad s.a.v. o'rtasidagi masofaning nisbiy o'lchovidur; Mazkur oyatning davomi hisoblangan اوادنی (av adna) so'zi tarjimada "yoki yaqinroq keldi" nashrda o'runi tarzda berib ketilgan.

Me'roj na'tini ifodalar ekan, quyidagi nazmiy she'r bilan davom etiladi:

نظم

شهی کیم بولوب مکرمت تاج انگا

مقام دنه کیلدی معراج آنگا

تاپب لطف حق دین سرافرازلیق

رسل معشری ایچرا ممتازلیق(Inv. no. 7572. 2A-b.)

Shahekim, bo'lub makrumat toj anga,

Maqomi daniy keldi me'roj anga.

Topib lutfi Haqdin sarafrozlik,

Rusul ma'shari ichra mumtozlik.(Ogahiy, 2020, p.5)

آنگا (ongo) so'zi nashrda "anga" shaklida berilgan; سرافرازلیق va ممتازلیق kabi so'zlarning ohirgi "q" undoshi "k" undoshi shaklida nashrda berilgan; masnaviyda payg'ambar eng so'ngi va eng ulug'i ekanligi ta'kidlanadi. Me'rojda chiqqanda eng yaqin kelgan zot ham, eng tojdori ham payg'ambarimiz ekanligi ta'kidlangan.

صاحب نصرته کیم نصرته یمنی دین

اهل اسلام لشکریگا قومات عظیم

عامل سیاستی کیم سیاستی

حسنی دین کفر وظلام معشری

اهل اسلام دا یره سیع کیردی(Inv. no.. 7572. 2A-b.)

Sohibnusratekim, nusrati yumnidin ahli islom lashkariga quvvati azim dast berdi, komil siyosatekim, siyosati husnidin kufri zulom ma'shari ahli islom doirasig'a kirdi. (Ogahiy, 2020, p.5)

Ushbu matn qo'lyozmada yo'q so'zlar qo'shib ketilganini ko'rishimiz mumkin, dast berdi so'zi qo'lyozmada mavjud emas; قومات (quvvamot) so'zi quvvati kabi berilgan; کفر وظلام (kufru zulom) so'zi kufri zulom shaklida berilgan.

ظرف نشان توغیغ انا فتحنا لك فتحا مبینا شقا کشی دور فتح افتران تبغی غ وینصرکم الله نصرا عزیزا جواهري زینت افترای دور(Inv. no. 7572. 2A-b.)

Zafarnishon tug'ig'a "inna fatahna laka fathan mubina" shaqqakushoyidur fathiqtiron tig'ig'a "Va yansurakallohu nasran 'aziza" javohiri ziynatafzoydur. (Ogahiy, 2020, p.5)

Ushbu matnda Fath surasini ikki oyatlari انا فتحنا لك فتحا مبینا va وینصرکم الله نصرا عزیزا kelgan bo'lib, nashrda ham uning tabdili yozilgan holos; شقا کشی دور, فتح افتران, زینت افترای دور kabi so'zlar qo'lyozmda alohida, nashrda esa qo'shib ketilgan.

مثنوی

شاه رسل خسرو نصرت پاناه

کیلدی ملایك آنگا خیل سیاه

عرس برین کیلدی مقامی آنینگ

حق بیربان نه اسه کامی آنینگ

دین ایلی لطفی دین اولوب کامیاب

قهری بیله کفر ایلیگ اضطراب

ذاته امم خیلیغ رحمت کیلیب

دابه معاصیغ شفاعت کلیب

درکه عالی سیع کونین ارا

حمل جهان سه ثهلاری کیلدی گدا(Inv. no. 7572. 2A-b.)

Shohi rusul, xusravi nusratpanoh,

Keldi maloyik anga xayli sipoh.

Arshi barin keldi maqomi aning,
Haq beribbon ne esa komi aning.
Din eli lutfidin o'lub komyob,
Qahri bila kufr eliga iztirob.
Zoti umam xaylig'a rahmat kelib,
Da'bi maosiyg'a shafoat kelib.
Dargohi oliysig'a qavnayn aro,
Jumla jahon shahlari keldi gado. (Ogahiy, 2020, p.5)

نصرت پاناه va عالی سیع so'zlari qo'lyozmada alohida, nashrda esa nusratpanoh, oliysig'a kabi qo'shib yozilgan; كــونين so'zi esa qavnayn shaklida yozilgan. آنگا va آنینگ kabi qo'lyozmadagi so'zlar "anga" va "aning" kabi nashrda berilib ketilgan. Bu masnaviy vasf tarzda yozilib, paygmabarlar podshohi ekanligi aytib o'tilgan. Tazod, husni ta'til, talmih kabi baddiy san'at turlari uchratish mumkin.

Xulosa. Ogahiy "Gulshani davla" asarida munojoat hamdlari yozmagan, mavzu doirasida Allohning podshohlarning shohi ekanligi tavsif etishga qaratgan. Hamd qismi faqat tavhid hamdlari bo'lib, unda asosan "Al-Malik" sifati ochishga hizmat qilgan, sababi asar mazmuniga monand; Qo'lyozmada asosan matnda uchragan so'z qo'shimchalar asosiy qo'shilayotgan so'zlardan ajratib yozilgan, nashrda esa qo'shib, ba'zi holatda esa chiziqcha bilan ajratilib yozilgan. Nashrda so'zlar qo'shilib ketish holatlari mavjud, qo'lyozmada esa bular ajratilib berilgan bo'lsa ham; Nashr qismning hamd qismida nashrga tayyorlovchilar tomonida qo'shib yuborilgan so'zlar mavjud. Qur'on oyatlari nashrda ham, qo'lyozmada ham tarjimasiz arabcha holatda berib ketilgan. Na't qismi esa me'roj qismi ham, vasf qismi ham ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Emine Yeniterzi. (1989), Na't in Divan Poetry. Doctoral thesis. Divan Şiirinde Na't. Doktora tezi. Konya. 53 p. (in Turkish)
2. G'ofurova Z. (2001), Navoi's praise and na't ghazals. Navoiyning hamd va na't g'azallari. -Toshkent. – 64 p. (in Uzbek)
3. In the treasury inv.no. 7572 of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhon Beruni of the Academy of Sciences of Uzbekistan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida. inv. 7572.
4. Sultonova, Q. (2000) Gulshani davlat. Muhammad Riza Erniyozbek ugli Ogahiy / works / volume 6. Gulshani davlat. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy / asarlar / 6 - jild - Tashkent.: "Sharq". 38 p. (in Uzbek)

5. Imomnazarov M. (2008), History of the development of spirituality. Manaviyatning rivojlanish tarixi. – Toshkent, 148 p. (in Uzbek)

6. Encyclopedia of Islam. (2004), Islom ensiklopediyasi. – Tashkent.: Sharq, 450 p. (in Uzbek)

7. Kamilov, N. (1970), Muhammadreza Ogahi's translation skills. Muhammadrizo Ogahiyning tarjomonlik mahorati. Ph.D. ...dis. - Tashkent.: 349 p.

8. Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. (2005), Tafsir Hilal. 1-vol. Tafsiri hilol. – Tashkent.: Movarounnahr, 666 p.